

## ASRGA TENG ILM GO'SHA

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Tillar fakulteti 3- bosqich talabasi*

***Ummatova Xurshidabonu Alisher qizi***

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada bola tarbiyasi, bola bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi, maktab bu borada qanday muhim ahamiyatga egaligi haqida so'z boradi. Maqola ustozlar va muallimlarning mehnatini qadrlash lozimligi to'g'risidadir.*

***Аннотация:*** *В этой статье рассказывается о воспитании детей о том, как заниматься с ребенком и насколько важна в этом отношении школа. В статье говорится о важности ценить труд учителей.*

***Kalit so'zlar:*** *Maktab, tarbiya, ta'lim, ustoz, mahalla, oliy ta'lim, do'stlar, ota- ona, ilm, farzand, oqillik, yurt, kelajak, oila, tayanch, ruhiyat, o'smirlik.*

***Ключевые слова :*** *Школа, воспитание, образование, учитель, соседство, высшее образование, друзья, родители, наука, ребенок, интеллект, страна, будущее, семья, опора, дух, подростковый возраст.*

Maktab dargohi har bir insonning buyuk shaxs bo'lishi uchun xizmat qiluvchi ulug' maskan hisoblanadi. Inson turibdiki, ota- onasi, bobo - buvisi umuman olganda barcha yaqin kishilari uni yetuk, oqil farzand bo'lib o'sishini xohlaydi. Yurtga sadoqatli, aqlli, odobli, shijoatli yoshlarni ko'rib, ularga havas ko'zi bilan qaraydi. Qani endi meni ham farzandim shunday kamol topsa deb dilida niyat qiladi. Albatta buning uchun ota - ona tarbiyasi katta rol o'ynaydi. Oilada yaxshi muhitda o'sgan bola kelgusida o'z orzulari yetishishi aniq. Bola o'qishi, ilm olishi eng muhim omil sanaladi. Bilim olishning chegarasi yo'q. Xuddi buyuk bobolarimiz aytganidek " Beshikdan to qabrgacha ilm izla" moq darkor. Men yaqinda o'qib qoldim, inson bolasi ona qornidaligidayoq onani eshita olarkan. Agar shu payti unga chiroyli gaplar aytilsa, diniy va dunyoviy bilimlar

berilsa ham eshita olarkan. Shuning uchun ko'p bo'lajak onalarga kitob ko'p o'qish tavsiya qilinar ekan. Farzandini oqil bo'lishini xohlagan har bir ona o'z manfaatlaridan ko'ra bolasi birinchi o'ringa qo'ya oladi. " Go'dakllikdan to yigitlikkacha " nomli kitobda juda ko'p farzan tarbiyasiga oid foydali maslahatlar berilgan. Jumladan, farzandni hech qachon boshqa bolalar bilan taqqoslash kerakmas. Uni yetuk shaxs bo'lishini istasangiz uni bolalar bilan taqqoslamang. Qiziqishlarini hurmat qiling deb yozilgan. Juda ko'p kuzatiladigan holatlardan biri qanchasi bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bola erkin bo'la olmasligi, hayotda o'z o'rnini topolmasligi, bir qaror qabul qilishi mushkul bo'lib qoladi. Aynan bu o'rinda oila, mahalla, o'qituvchilar va do'stlar eng muhim tayanch vazifasini o'tashlari lozim.

Maktab bolalar uchun eng yaxshi dargohdir. Ilm olishga bo'lgan qiziqish har bir bolaning qalbida bo'ladi. Eng tarbiyasi og'ir bolalarni ham darsga qiziqtirish, ularni darsda qatnashtira olish mumkin bu esa o'qituvchinig qo'lida. O'qituvchi bamisoli quyosh nuri kabi bola qalbiga va aqliga nur sochishi darkor. Uni murg'ak boqib turgan ko'zlariga quvonch yorqin olib kirishi mumkin bo'lgan inson bu - ustozdir. Ba'zi bolalar bor ustozlarini shu darajada yaxshi ko'rishadi. Xatto birortasi hafa qilib qo'ysa ustoziga aytib berib o'zi uchun muhim himoya tayanchi deb hisoblaydi . Aslida bu yaxshi ustoz qachonki bolani ko'ngliga yo'l topolsa, so'ng o'sha bolaning aqliga bilim joylay oladi. Mening o'z tugatgan maktabimni ochilganiga 1 asr bo'libdi. Aynan 100 yil avval 1924- yil sentyabr oyida atigi 24 ta o'quvchi bilan o'z faoliyatini boshlagan. U payda faqatgina maktabni ochgan inson O'ktam muallim dars o'tgan.O'ktam ustoz boshqa tumandan kelganligi sabab turar joyi bo'lmagan. Shuning uchun sinf xonani tepasiga chiqib yotar ekan. Keyinchalik unga qishloq ahli uy qurib berishigan ekan.

Maktabning birinchi qaldirg'ochlari qatorida mening katta bobom Saidkalon Bo'kalon qori o'g'li Boboev ham bo'lgan. U zamonlarda maktab ochish bir bolaga bir harf o'rgatish mushkul edi. Shunday zamonga qaramay xalqni o'qimishli qilmoq kabi muqaddas maqsad yo'lida xizmat qilgan insonni

soʻz bilan taʼriflab boʻlmaydi. U ustozni jadid bobolarimizga qiyoslasak arziydi. Keyinchalik qishlogʻimiz kattalashib bolalar soni ham koʻpaydi. Hozirda mingdan ortiq bolalar u yerda taʼlim olishadi.

Orzularni tugʻiladigan ular takomillshadigan maskan bu maktab boʻlsa kerak. Oʻz kelajagini har bir oʻquvchi birinchi boʻlim partada oʻtirgan payti oʻylab koʻradi. Men kim boʻlaman ekan? Bu savolga javobni aynan birinchi boʻlib maktabda oʻylay boshlaydi. Maktabga oshiqadigan, maktabdabdan uyga oshiqadigan bolalar bor. Ularni ikkila toifasi ham yaxshi. Shunday bolalar bor maktabga kelmoq bahonasida koʻcha kezishadi. Bu behuda odat ularni yaxshi yoʻl tomon olib bormaydi. Buni sezgan yaqinlari bolaga taziyoq oʻtkazib qoʻyishi mumkin. Bu chora bola tarbiyasiga nojoʻya taʼsir qiladi. Oila- bola uchun eng ishonchli qalʼ a boʻlsagina, u oʻzini qiynayotgan savollarga shu yerdan javob topolsa, hech qachon ota onasini yuzini yerga qaratmaydi. Ustozlardan ham koʻp psixologlar oʻquvchilar bilan doʻstona munosabatda boʻlishni talab qiladilar. Ayniqsa, oʻsmirlik paytida bola ruhiyatida oʻzgarishlar roʻy beradi. Injiqliklari, qaysarliklari, asab ilashish holatlari koʻp kuzatiladi. Nazorat qilinishini ayniqsa, oʻz (shaxsiy) ishlariga aralashishlari xohlamaydi. Holbuki, u tushunmaydiki hali u bola. Ota onasi uchun u har doim bolaligicha qolishini, har safar unga qarashganida begʻubor bolachani koʻrishlarini bilishi kerak.

Bola tarbiyasida uni kattalarga hurmatda boʻlish kerakligini uqtirish kerak. Tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan kitoblar koʻp oʻqitilishi lozim. Muhtaram prezidentimiz aytganlaridek " Bugun bir kitob oʻqigan bola ertaga 10 televizor koʻrgan bolani boshqaradi". Darhaqiqat, maqsadi yoʻq inson kun kelib maqsadiga erishganlar qoʻlida oddiy ishchi boʻlib qolishi hech gapmas. Oʻqimishli odam qaram boʻlmagʻay.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1 Sheniz Yujel " Goʻdaklikdan yigitlikka qadar"
- 2 Ziyo.uz
- 3 facebook.com
- 4hilolnashr.uz